



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 162-169 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATNI IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI



Maksumova Dildora Alisherovna

TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrası, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoatni iqtisodiy barqaror rivojlantirishda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda xorijiy tajribada shakllangan ekologik transformatsiya va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish yondashuvlari o'rganilib, ularning samarali jihatlari milliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Hamda xorijiy tajribadan samarali foydalanishning muhim yo'llari sifatida milliy sanoat siyosatini yashil standartlarga moslashtirish, ekologik soliq imtiyozlarini kengaytirish, yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va barqaror ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, sanoat siyosati, iqtisodiy barqaror rivojlanish, yashil sanoat siyosati, xorijiy tajriba va transfer texnologiyalar, yashil investitsiyalar, barqaror sanoat rivojlanishi, energiya samarador sanoat.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты применения принципов «зелёной экономики» в процессе устойчивого экономического развития промышленности. В исследовании изучены подходы, сформировавшиеся в зарубежной практике экологической трансформации и внедрения ресурсосберегающих технологий, а также рассмотрены возможности их эффективного применения в национальных условиях. Кроме того, предложены направления эффективного использования зарубежного опыта, включая адаптацию промышленной политики к «зелёным стандартам», расширение экологических налоговых льгот, развитие механизмов «зелёного финансирования» и поддержку устойчивого производства.

Ключевые слова: зелёная экономика, промышленная политика, устойчивое экономическое развитие, зелёная промышленная политика, зарубежный опыт и трансфер технологий, зелёные инвестиции, устойчивое развитие промышленности, энергоэффективная промышленность.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of applying the principles of the "green economy" in the process of sustainable economic development of industry. The study examines approaches developed in foreign practice regarding ecological transformation and the introduction of resource-saving technologies, as well as the possibilities of their effective implementation under national conditions. Furthermore, the paper proposes key directions for effectively utilizing foreign experience, including the adaptation of industrial policy to green

standards, the expansion of environmental tax incentives, the development of green financing mechanisms, and the support of sustainable production.

Keywords: *green economy, industrial policy, sustainable economic development, green industrial policy, foreign experience and technology transfer, green investments, sustainable industrial development, energy-efficient industry.*

Kirish

Jahondagi globallashuv va texnologik o'zgarishlar sharoitida yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar hisobiga eksport salohiyatini oshirish hamda sanoat tarmoqlari resurslaridan samarali foydalanish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu munosabat bilan jahon miqyosida "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini joriy etish, sanoatni ekologik barqaror rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

BMTning Atrof-muhit dasturi tomonidan e'lon qilingan "Towards a Green Economy" hisobotida ta'kidlanganidek, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muvozanatni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishni innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va mehnat unumdorligini oshirish orqali barqaror asosda ta'minlashni ko'zda tutadi [3]. OECD 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o'sishni "energiya intensivligini pasaytirish" va "resurs tejankor sanoat" ga o'tish orqali amalga oshirmoqda [4].

Germaniya misolida "Energiewende" siyosatining amalga oshirilishi natijasida 2024-yilda mamlakat elektr energiyasining 52 foizi qayta tiklanuvchi manbalar hissasiga to'g'ri kelgan, 1990 yildan buyon sanoatdagi CO₂ chiqindilari 39 foizga qisqargan [5]. Shu bilan birga, 2019-2022-yillarda Germaniya sanoat siyosatiga yo'naltirilgan investitsiyalar YAIMning 0,54 foizidan 1,19 foizgacha oshgan [5].

Janubiy Koreyada 2020-yilda qabul qilingan "Green New Deal" dasturi doirasida 73,4 trillion von bu esa taxminan 62 milliard AQSH dollari miqdorida sarmoya yo'naltirilib, qayta tiklanuvchi energiya ulushini 2030-yilgacha 20 foizdan ortiq darajaga yetkazish rejalashtirilgan. Bu dastur natijasida 650 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan hamda sanoatda energiya samaradorligi 15 foizga oshgan [6].

O'zbekiston ham so'nggi yillarda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish bo'yicha izchil siyosat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni "O'zbekiston - 2030" strategiyasida "sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish, texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga oshirish va qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar ko'paytirish" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qarorida qayd etilganidek, mamlakatda energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 30 foizga yetkazish, uglerod intensivligini har yili 2-3 foizga pasaytirish va sanoatda ekologik samaradorlikni oshirish vazifalari ustuvor hisoblanadi. Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturining "Uzbekistan Green

Transition Outlook” hisobotida ushbu strategiyaning to’liq amalga oshirilishi natijasida 2030 yilgacha mamlakatda yillik SO₂ chiqindilarini 6 million tonnagacha qisqartirish imkoniyati borligi qayd etilgan [7]. Shuningdek, Sachs va Stern asarlarida ta’kidlanganidek, yashil iqtisodiy o’sish nafaqat ekologiyani muhofaza qilish vositasi, balki iqtisodiy samaradorlik, innovatsiyalar va yangi ish o’rinlari yaratishning barqaror drayveri hisoblanadi [9].

Mamlakatimizda ushbu yo’nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar sanoat salohiyatidan samarali foydalanish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirishga qaratilgan bo’lib, ular “Yashil iqtisodiyot - 2030” strategiyasi maqsadlariga mos ravishda amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan, sanoatni iqtisodiy barqaror rivojlantirishda Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiyaning ilg’or tajribalarini chuqur o’rganish va ularni O’zbekiston sharoitiga moslashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi [1,2].

Mazkur tadqiqotning aynan shu masalalarga bag’ishlanganligi uning va tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Sanoat tarmog’i iqtisodiy samaradorligini baholashda ishonchli ma’lumotlar bazasi va ko’p mezonli ko’rsatkichlardan foydalanish imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy samaradorlik – bu o’zgaruvchan va noaniqlik sharoitida barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun mavjud resurslardan eng yuqori natija olish qobiliyatidir [2].

Sanoat tarmoqlarining samaradorligini tahlil qilishda iqtisodiy faoliyatning faqat hajmiy ko’rsatkichlarini emas, balki atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirini ham hisobga olish lozim. UNEPning “Towards a Green Economy” (2011) hisobotida ta’kidlanishicha, yashil iqtisodiy siyosatni joriy etish natijasida dunyo YAIMi har yili o’rtacha 0,3-0,4 foizga o’sishi, ishsizlik darajasi esa 2 foizgacha pasayishi mumkin.

OECDning “Green industrial policies for the net-zero transition” tadqiqotida qayd etilganidek, so’nggi o’n yilda global sanoatdagi “yashil” investitsiyalar hajmi jami investitsiyalarning 14 foizini tashkil etgan bo’lib, shundan 5 foizi qayta tiklanuvchi energiyaga, 3 foizi resurs tejankor texnologiyalarga yo’naltirilgan. Bu ma’lumotlar sanoat samaradorligini faqat moliyaviy ko’rsatkichlar emas, balki texnologiya va ekologiya bilan uyg’un baholash zarurligini ko’rsatadi [4].

IEAning Germany 2025: Energy Policy Review hisobotida qayd etilganidek, so’nggi besh yil ichida sanoatda energiya tejankorlikning o’sishi natijasida dunyo bo’yicha 1,7 gigatonna SO₂ chiqindilari kamaygan. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishida qayta tiklanuvchi energiya ulushi 28 foizga yetgan. Bu tendensiyalar iqtisodiy samaradorlikning ekologik samaradorlik bilan bog’liqligini aniq namoyon etadi [5].

Koreyaning “Green New Deal” dasturi doirasida 2020-2023-yillarda sanoatda “yashil texnologiyalar” ulushi 7,8 foizga, energiya tejankor ishlab chiqarish ko’rsatkichlari esa 12 foizga oshgan. Bu natijalar Koreya sanoatida barqaror rivojlanishga yo’naltirilgan modernizatsiya modelining samaradorligini isbotlaydi [6].

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi “2019-2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o’tish strategiyasi” qarorida mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 2030-yilgacha 30 foizga,

uglerod chiqindilarini har yili 2-3 foizga qisqartirish belgilangan [2]. Shu bilan birga, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi (2024) ma'lumotlariga ko'ra, yashil sanoat loyihalari 2022-2024-yillarda O'zbekiston YAIMiga 1,6 foizlik qo'shimcha o'sishni ta'minlagan va 100 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratgan [7].

D.Saksning fikricha, sanoat samaradorligini oshirishning uzoq muddatli drayveri inson kapitali va innovatsiyalardir. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, yashil texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini 15-20 foizgacha oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, N. Stern (2022) iqlim siyosatini iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida baholab, yashil moliyalashtirishga har yili YAIMning kamida 2 foizi miqdorida sarmoya yo'naltirishni tavsiya etgan [9].

Fikrimizcha, sanoat samaradorligining tarkibiy qismlari – innovatsion, infratuzilmaviy, moliyaviy va moddiy-texnik omillarning barqaror integratsiyasiga asoslanishi lozim. Bunda ichki va tashqi bozor sharoiti, marketing va logistika imkoniyatlari, resurs tejamkorlik va ekologik muvofiqlik mezonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat samaradorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birga ekotexnologik va innovatsion parametrlarni qamrab olish zarur. Bunday tizimli yondashuv iqtisodiy barqarorlikka erishishda "yashil iqtisodiyot"ning strategik ahamiyatini oshiradi. Maqolada "yashil iqtisodiyot" sharoitida sanoatni barqaror rivojlantirish masalalari chuqur tahlil qilingan bo'lib, unda xalqaro tajriba, ilmiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lib, O'zbekiston sanoat siyosatida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish uchun muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. Ushbu maqola olib borilgan tadqiqotning ilmiy dolzarbligini yaqqol aks ettiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada mavzu bo'yicha xorijiy olimlar tadqiqotlari chuqur o'rganilgan. Amaliy tahlillarda rasmiy statistik ma'lumotlar hamda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash statistik jadval va grafik, solishtirma tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Quyidagi tahlil keltirilgan Germaniya, Koreya va O'zbekistonning umumiy energiya ta'minoti asosida tayyorlandi va ularni tahlil qilingan. Ushbu mamlakatlar energiya manbalarining tarkibi, ulushi va strategik yo'nalishlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, bu esa ularning iqtisodiy tuzilmasi, tabiiy resurs bazasi va davlat siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Germaniya, Koreya va O'zbekiston energiya ta'minoti tizimlarini solishtirganda, ularning har biri o'zining energetik modeliga ega ekani yaqqol ko'rinadi va aks ettiradi.

Germaniya - qayta tiklanuvchi energiya manbalariga tayanadigan, ekologik jihatdan barqaror tizimga o'tgan davlat sifatida ajralib turadi. Grafikda va ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, shamol energiyasi 27,2%, quyosh energiyasi 14,6%, bioyoqilg'i 8%, tabiiy gaz esa 17,5% ulushni tashkil etadi. Qolgan qismini ko'mir (23,5%) va boshqa manbalar egallaydi. Bu raqamlar Germaniyada "Energiewende"-energiya inqilobi siyosati

muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini, ya'ni mamlakat uglerod chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda ekanini tasdiqlaydi.

Janubiy Koreya esa Germaniyaga nisbatan hali ham an'anaviy energiya manbalariga tayanadi. Uning umumiy energiya balansida neft va neft mahsulotlari 36,8%, ko'mir 22,3%, tabiiy gaz 18,7%, yadro energiyasi 17,5% ulushni tashkil etadi. Bu mamlakatning energiya siyosati barqarorlik va xavfsizlikning aralash modeli sifatida tavsiflanadi.


Mamlakat energiya ta'minotining 79 foizi tabiiy gazga, 11,4 foizi neft mahsulotlariga, 1,2 foizi gidroenergetikaga to'g'ri keladi. Bu holat respublikaning tabiiy gaz zaxiralariga boyligi bilan bog'liq bo'lsa-da, uzoq muddatda energiya xavfsizligi va diversifikatsiya masalalarini dolzarb qiladi. O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, yashil energiya siyosatini joriy etish orqali qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 2030-yilgacha 25% gacha oshirishni maqsad qilgan.

1-jadval

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish holati tahlili¹

Ko'rsatkich	Germaniya	Koreya	O'zbekiston
Asosiy manba	Shamol va Quyosh	Neft va Yadro	Tabiiy gaz
Qayta tiklanuvchi ulushi	Yuqori (40% dan ortiq)	Past (5-10%)	Juda past (2-3%)
Yadro energiyasi	Yo'q	17,5%	Yo'q
Uglevodorodlarga qaramlik	Past	Yuqori	Juda yuqori
Strategik yo'nalish	"Energiewende" - to'liq yashil o'tish	Uglerod neytrallikka o'tish (2050)	Yashil energetika loyihalari boshlang'ich bosqichda

Umuman olganda, Germaniya qayta tiklanuvchi energiyaga o'tishda yetakchi davlat sifatida ekologik barqarorlikni ustuvor yo'nalish qilib olgan. Koreya bu borada oraliq modelni tanlab, yadro va qayta tiklanuvchi manbalar o'rtasida muvozanatni saqlashga intilmoqda. O'zbekiston esa tabiiy gazga tayanadigan, lekin qayta tiklanuvchi energiya yo'nalishida yangi bosqichni boshlayotgan davlat sifatida ajralib turadi. Shu tarzda, bu uch mamlakatning energetika siyosatini taqqoslash milliy resurslar, iqtisodiy imkoniyatlar va davlat strategiyalarining turlicha yo'nalishini yaqqol namoyon etadi.



1-rasm. Germaniya, Koreya va O'zbekiston elektr energiyasi ishlab chiqarish evolyutsiyasi²

¹ Muallif ishlanmasi.

² Xalqaro energetika agentligi (IEA) <https://www.iea.org/countries>

So'nggi yillarda dunyo miqyosida energiya ishlab chiqarishda ekologik barqarorlik va energiya xavfsizligi eng muhim masalalardan biriga aylandi.

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar Germaniya, Koreya va O'zbekiston kabi mamlakatlar bu borada qanday yo'l tutayotganini aniq aks ettiradi. Germaniya elektr energiyasi ishlab chiqarishning ekologik modeliga o'tishda eng faol davlatlardan biridir. 2000-yillarning boshlarida Germaniya asosan ko'mir va neft mahsulotlariga tayanar edi, biroq vaqt o'tishi bilan bu manbalar sekin-asta kamaydi. Mamlakat "Energiewende" nomli milliy siyosatni qabul qilib, shamol va quyosh energiyasiga ustuvorlik berdi. 2010-yildan so'ng shamol elektr stansiyalari jadal rivojlanib, 2020-yilga kelib ular Germaniya elektr ishlab chiqarishining asosiy qismini tashkil etdi. Shu bilan birga, yadro energiyasidan bosqichma-bosqich voz kechish siyosati amalga oshirildi. Bu jarayon mamlakatning uglerod chiqindilarini kamaytirish hamda energiya tizimini diversifikatsiya qilishga qaratilgan harakatining natijasidir.

Janubiy Koreya esa Germaniyadan farqli ravishda energiya ishlab chiqarishda an'anaviy manbalarga tayanishni davom ettirgan. Rasmda ko'rinib turibdiki, 2000-yildan boshlab Koreyada elektr energiyasining katta qismi ko'mir, neft va tabiiy gaz hisobiga ishlab chiqarilgan. Shunga qaramay, mamlakat yadro energetikasini faol rivojlantirib, uni barqaror energiya manbasi sifatida qo'llaydi. So'nggi yillarda esa Koreya ham uglerod neytralligi strategiyasi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga e'tibor qaratmoqda - ayniqsa shamol va quyosh loyihalari bo'yicha yirik investitsiyalar amalga oshirilmogda. Biroq bu manbalarning ulushi hali past bo'lib, elektr ishlab chiqarishning katta qismi hanuzgacha uglevodorod yoqilg'ilarga bog'liq.

O'zbekistonda esa elektr energiyasi ishlab chiqarish tizimi asosan tabiiy gazga asoslangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000-2020-yillar oralig'ida elektr ishlab chiqarishning 80-85 foizi tabiiy gazdan olinadi. Ko'mir va neft mahsulotlari ulushi juda kam, gidroenergetika esa 1-2 foiz atrofida. Bu holat O'zbekistonning tabiiy resurslari tarkibiga mos bo'lib, gaz zaxiralari mamlakat uchun eng qulay energiya manbai hisoblanadi. So'nggi yillarda esa hukumat tomonidan quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari faol boshlangan. Masalan, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida yirik quyosh elektr stansiyalari barpo etilmogda. 2030-yilgacha mamlakat elektr energiyasining kamida 25 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan olish maqsadi belgilangan. Bu esa O'zbekistonning energiya tizimini barqarorlashtirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi muhim qadamlardan biridir.

Umuman olganda, Germaniya, Koreya va O'zbekiston elektr energiyasi ishlab chiqarish yo'nalishlarida turli strategiyalarni tanlagan. Germaniya yashil energetika va ekologik barqarorlikni ustuvor yo'nalish sifatida ilgari surib, qayta tiklanuvchi manbalarni yetakchi o'ringa olib chiqdi. Koreya esa yadro va uglevodorod energiyasi o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda barqaror o'sishni davom ettirmogda. O'zbekiston esa tabiiy gazga tayanadigan iqtisodiyotdan bosqichma-bosqich qayta tiklanuvchi energiyaga o'tayotgan yangi islohotchi davlat sifatida shakllanmogda.

Tahlillarga ko'ra, Germaniya, Koreya va O'zbekistonning elektr energetika savdosi ya'ni eksport-import balansi dinamikasi tasvirlangan bo'lib, u mamlakatlarning energiya siyosati, ishlab chiqarish quvvati va iqtisodiy mustaqilligi darajasini yaqqol namoyon etadi. Germaniya grafikida 2000-2023-yillar davomida elektr energiyasi eksporti barqaror

o'sish yo'nalishida bo'lgani ko'rinadi. 2005-yildan boshlab eksport hajmi keskin oshgan va 2017-yilda eng yuqori cho'qqiga yetgan. Shu davrda import hajmi nisbatan past bo'lib, mamlakat sof eksportchi maqomini mustahkamlab olgan.

Bu jarayon Germaniyaning "Energiewende" – yashil energetika siyosati natijasidir. Ya'ni, mamlakat qayta tiklanuvchi energiya (shamol va quyosh) ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirib, ortiqcha energiyani Yevropaning boshqa mamlakatlariga eksport qilmoqda. 2020-yildan keyingi yillarda eksport biroz kamaygan bo'lsa-da, Germaniya hali ham Yevropadagi eng yirik elektr eksportchilaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu mamlakatning energiya mustaqilligi va ekologik transformatsiyasining yuqori darajada amalga oshirilganini bildiradi.

Koreyada esa mutlaqo teskari holat kuzatiladi. 2000-2023-yillar oralig'ida mamlakat elektr energiyasi eksportidan ko'ra ko'proq importga tayanadi. Eksport hajmi juda past - yiliga atigi 3-5 TWh atrofida, import esa 40-60 TWh oralig'ida o'zgarib turadi.

Bu holat Janubiy Koreyaning energiya resurslariga qaramligidan dalolat beradi. Mamlakatda tabiiy resurslar kam bo'lgani uchun, u ko'mir, gaz va neft yoqilg'ilarini chetdan import qilib, ichki elektr ishlab chiqarishda foydalanadi. Shu sababli Koreya energetika balansida salbiy tafovut kuzatiladi. So'nggi yillarda esa Koreya "2050 Carbon Neutral" strategiyasi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni boshlagan, biroq bu hali milliy ishlab chiqarish hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi global iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish barqaror o'sishning muhim omiliga aylanmoqda. Germaniya, Janubiy Koreya va O'zbekiston misolida olib borilgan taqqoslama tahlillar ushbu yo'nalishda turli strategiyalar, resurs salohiyati va davlat siyosatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Germaniya qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish jarayonida dunyoda yetakchi o'rinni egallab, "Energiewende" siyosati orqali uglerod chiqindilarini keskin kamaytirishga erishgan. Elektr ishlab chiqarishning 50 foizdan ortig'ini shamol va quyosh energiyasi tashkil etadi, bu esa mamlakatni ekologik jihatdan barqaror energiya tizimiga olib kirdi. Koreya esa energiya xavfsizligini saqlash maqsadida yadro energiyasini rivojlantirishni davom ettirib, qayta tiklanuvchi manbalarining ulushini asta-sekin oshirmoqda. O'zbekistonda esa energiya tizimi hali ham tabiiy gazga tayanadi, biroq 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25-30 foizgacha oshirish maqsadi bilan muhim islohotlar boshlangan.

Umuman olganda, ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, energetika siyosatini diversifikatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va uglerod intensivligini kamaytirish iqtisodiy barqarorlikning asosi hisoblanadi. Shuningdek, sanoatda "yashil texnologiyalar", resurs tejamkor ishlab chiqarish va innovatsion yechimlardan foydalanish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, O'zbekiston uchun sanoatni iqtisodiy barqaror rivojlantirishda Germaniya va Janubiy Koreya tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirish eng maqbul yo'ldir. Bu yo'nalishda energiya resurslarini tejash, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish va innovatsion

ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yangi drayveriga aylanadi. Shu tarzda, 'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qarorida nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan ustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirilishi lozim.

Mazkur maqola tadqiqot mavzusining nazariy va amaliy ahamiyatini chuqur yoritgan bo'lib, unda ilmiy dolzarblik nafaqat mavzuning zamonaviyligi, balki sanoatni ekologik barqaror rivojlantirishdagi strategik ahamiyati bilan ham asoslab berilgan. Ushbu maqola olib borilgan tadqiqotning ilmiy dolzarbligini yaqqol aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). "O'zbekiston - 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmon. <https://lex.uz/docs/6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi - 2030." <https://lex.uz/docs/4539502>
3. UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. <https://www.unep.org/greeneconomy/resources/green-economy-report>
4. OECD. (2024). Green Industrial Policies for the Net-Zero Transition. - OECD Publishing, Paris. <https://www.oecd.org/environment/green-industrial-policies.htm>
5. IEA. (2025). Germany 2025: Energy Policy Review. - International Energy Agency, Paris. <https://www.iea.org/reports/germany-2025>
6. Agora Energiewende. (2022). Korean Green New Deal Report. - Berlin-Seoul. <https://www.agora-energiewende.org/publications/korean-green-new-deal>
7. World Bank & UNDP. (2024). Uzbekistan Green Transition Outlook. - Tashkent Office. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/>
8. Sachs, J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. - Columbia University Press. <https://cup.columbia.edu/book/the-age-of-sustainable-development/9780231173155>
9. Stern, N. (2022). The Economics of Climate Change: The Stern Review. - London School of Economics. <https://www.lse.ac.uk/granthaminstitute/publication/the-economics-of-climate-change-the-stern-review/>
10. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi- <https://lex.uz/uz>
11. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP). (2023). Markaziy Osiyo mamlakatlarida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha hisobot. - Nyu-York: UNDP. <https://www.undp.org/>
12. Jahon banki. (2024). O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha mamlakat hisobot: "Yashil va raqamli iqtisodiyotga o'tish yo'lida". <https://documents.worldbank.org/>

